



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulaton Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IIY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukurimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Harzullaeva Fariza Akmalевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF DIVIDEND POLICY IN UZBEKISTAN COMPANIES	76
Akmal Komiljonovich Shermukhamedov	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi	
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li	
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILIIY KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich	
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi	
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	



O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI



Ergasheva Iroda Ibrohim qizi
Fan va texnologiyalar universiteti
“iqtisodiyot” kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar tizimining mazmuni, rivojlanish tendensiyalari hamda mamlakat iqtisodiyoti va sog'liqni saqlash tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tibbiy turizmni rivojlantirish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, zamonaviy tibbiy xizmatlar sifati, xorijiy va mahalliy bemorlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar hamda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari tibbiy turizmni rivojlantirish aholining salomatligini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb etish va mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность, значение и перспективы развития медицинского туризма и системы медицинских услуг в Узбекистане. Освещаются реформы, проводимые в сфере здравоохранения страны, внедрение современных медицинских услуг и меры по развитию медицинского туризма. Также раскрывается экономическая эффективность медицинского туризма, его роль в привлечении иностранных пациентов и значение в совершенствовании национальной системы здравоохранения.

Abstract. This article analyzes the essence, significance, and development prospects of medical tourism and the medical services system in Uzbekistan. It highlights the healthcare reforms being implemented in the country, the introduction of modern medical services, and measures aimed at developing medical tourism. The study also reveals the economic effectiveness of medical tourism, its role in attracting foreign patients, and its importance in improving the national healthcare system.

Kalit so'zlar: tibbiy turizm, tibbiy xizmatlar, sog'liqni saqlash tizimi, tibbiy xizmat sifati, tibbiyot muassasalari, sog'lomlashtirish, investitsiyalar, innovatsion texnologiyalar, xalqaro hamkorlik, O'zbekistonda tibbiy turizm.

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqosida tibbiy turizm sog'liqni saqlash va xizmatlar sohasining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tibbiy xizmatlar sifati, zamonaviy diagnostika va davolash usullarining keng joriy etilishi hamda tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi tibbiy turizmning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda ham sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xalqaro standartlarga mos tibbiy xizmatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar tizimining mazmuni, rivojlanish holati hamda istiqbollarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning obyekti O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tibbiy turizmni tashkil etish va rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda tibbiy xizmatlar ko'rsatish mexanizmlaridan iborat.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar tizimining mazmuni, rivojlanish xususiyatlari hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tibbiy turizmning nazariy asoslari va mazmunini o'rganish;
- O'zbekistonda tibbiy xizmatlar tizimining hozirgi holatini tahlil qilish;
- tibbiy turizmni rivojlantirish omillari va imkoniyatlarini aniqlash;
- sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini baholash;
- tibbiy xizmatlar sifati oshirish va tibbiy turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.



Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi natijasida turizmning yangi yo'nalishlari shakllanib bormoqda. Ana shunday istiqbolli yo'nalishlardan biri tibbiy turizm hisoblanadi. Tibbiy turizm insonlarning sog'lig'ini tiklash, davolanish, profilaktika va reabilitatsiya maqsadida boshqa hudud yoki mamlakatga safar qilishi bilan bog'liq faoliyatni anglatadi. Ushbu yo'nalish nafaqat sog'liqni saqlash tizimi, balki turizm industriyasining ham muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlanmoqda.

Tibbiy turizmning shakllanishi aholining sifatli tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgani, ayrim davlatlarda davolanish xarajatlarining yuqoriligi, zamonaviy texnologiyalar va malakali mutaxassislarning ma'lum hududlarda jamlanganligi bilan izohlanadi. Shu sababli ko'plab insonlar nisbatan arzon, sifatli va tezkor tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida xorijiy mamlakatlarga murojaat qilmoqda. Natijada tibbiy turizm xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim segmentiga aylanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda tibbiy turizm tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uni sog'liqni saqlash va turizm integratsiyasining mahsuli sifatida baholasa, boshqalar uni xalqaro xizmatlar bozorining alohida turi sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchi sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, tibbiy turizmning asosiy mohiyati turistning davolanish jarayoni bilan bir qatorda dam olish, sog'lomlashtirish va psixologik tiklanish ehtiyojlarini ham qondirishga qaratilgan kompleks xizmatlar tizimidan iboratdir.

Tibbiy turizmning asosiy turlariga diagnostik xizmatlar, jarrohlik amaliyotlari, stomatologik xizmatlar, kosmetologiya, reproduktiv tibbiyot, reabilitatsiya hamda sanatoriy-sog'lomlashtirish xizmatlari kiradi. Ayniqsa, so'nggi yillarda estetik tibbiyot, transplantologiya va yuqori texnologik operatsiyalarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu esa tibbiy xizmatlar bozorining kengayishiga hamda davlatlar o'rtasida raqobat kuchayishiga olib kelmoqda.

Tibbiy xizmatlar tizimi esa aholining sog'lig'ini saqlash, kasalliklarning oldini olish, tashxis qo'yish, davolash va reabilitatsiya jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar majmuasidir. Ushbu tizim tarkibiga shifoxonalar, poliklinikalar, diagnostika markazlari, dorixona tarmoqlari, sug'urta tashkilotlari, sanitariya xizmatlari hamda tibbiy kadrlar faoliyati kiradi. Zamonaviy sharoitda tibbiy xizmatlar tizimining samaradorligi nafaqat davolash sifati, balki xizmat ko'rsatish tezligi, innovatsion texnologiyalar, axborot tizimlari va servis darajasi bilan ham belgilanadi.

Turizm va tibbiy xizmatlar tizimi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Chunki turistlarning xavfsizligi va salomatligi turistik xizmatlarning sifati hamda hududning jozibadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar turistik hududlarda zamonaviy tibbiy infratuzilma shakllangan bo'lsa, bu turistlar oqimining oshishiga xizmat qiladi. Aksincha, tibbiy xizmatlar darajasining pastligi turistlarning ishonchini kamaytirishi mumkin.

Shuningdek, tibbiy turizm mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltiruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Xorijiy turistlarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar eksport xizmatlari tarkibiga kirib, valyuta tushumlarini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish va xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston sharoitida ham tibbiy turizmni rivojlantirish uchun muayyan imkoniyatlar mavjud. Mamlakatdagi zamonaviy klinikalar, malakali shifokorlar, tarixiy-madaniy maskanlar hamda nisbatan arzon tibbiy xizmatlar xorijiy turistlarni jalb etishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois tibbiy xizmatlar tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va turizm bilan integratsiyasini kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mahalliy olimlar tadqiqotiga ko'ra O. Umarov va M. Mirzaboyeva tadqiqotchilar tibbiy turizmning shakllanish bosqichlari, jahon tajribasi va O'zbekistonda innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini o'rgangan. Ularning fikricha, O'zbekistonning geografik joylashuvi, malakali shifokorlar va nisbatan arzon davolanish xizmatlari tibbiy turizmni rivojlantirishning asosiy ustunliklari hisoblanadi. Mualliflar xalqaro akkreditatsiya va tibbiyot OTMlari bilan hamkorlikni kuchaytirishni tavsiya etadilar.

Xorijiy olimlar tadqiqotiga ko'ra Yongrok Choi, Zamira Ashurova va Hyongsuk Leelar O'zbekistonda tibbiy turizm rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni empirik tadqiq etganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

- xizmat sifati;
- davlat boshqaruvi samaradorligi;
- xalqaro imidj;
- tibbiy infratuzilma;

tibbiy turistlarning qaror qabul qilishida asosiy omillar hisoblanadi. Mualliflar O'zbekiston Markaziy Osiyoda tibbiy turizm markaziga aylanish salohiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydilar, biroq xizmatlar sifati va xalqaro tan olinishi hali yetarli darajada emasligini qayd etadilar.



Mahalliy va xorijiy olimlar qarashlarining taqqoslanishi

Mezoni	Mahalliy olimlar qarash	Xorijiy olimlar qarashi
Asosiy e'tibor	Tibbiy turizmni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlik	Xizmat sifati va xalqaro raqobatbardoshlik
Rivojlanish omili	Geografik joylashuv, arzon narxlar, davlat qo'llovi	Xalqaro akkreditatsiya, sifat standartlari
Muammolar	Marketing sustligi, infratuzilma kamchiliklari	Xalqaro imidj va xizmat sifati
Takliflar	Innovatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik	Raqamlashtirish, boshqaruv samaradorligi
Kutilayotgan natija	Tibbiy xizmatlar eksportini oshirish	Global tibbiy turizm bozorida raqobatbardoshlik

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan monografik kuzatuv, restospektiv tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xususiy tibbiyot muassasalari sonining ortishi, zamonaviy tibbiy uskunar bilan jihozlangan klinikalarning tashkil etilishi hamda xorijiy bemorlarga xizmat ko'rsatish tizimining takomillashuvi tibbiy turizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda (1-jadval).

O'zbekistonda tibbiy turizm xizmatlaridan foydalangan xorijiy fuqarolar sonining o'sish dinamikasi

Yil	Xorijiy bemorlar soni (ming kishi)
2021	45
2022	58
2023	72
2024	89
2025	105

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tibbiy xizmatlardan foydalanuvchi xorijiy fuqarolar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa mamlakatda tibbiy xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotganidan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval Tibbiy turizm xizmatlaridan foydalangan xorijiy fuqarolar soni

2021	45 ming
2022	58 ming
2023	72 ming
2024	89 ming
2025	105 ming

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonga tibbiy maqsadlarda tashrif buyurayotgan bemorlarning asosiy qismi qo'shni davlatlardan kelmoqda. Ular asosan stomatologiya, kardiologiya, oftalmologiya, reproduktiv salomatlik va plastik jarrohlik xizmatlaridan foydalanadilar.

O'tkazilgan tahlillar natijasida tibbiy turizmni yanada rivojlantirish uchun tibbiy muassasalarning xalqaro akkreditatsiyadan o'tishini qo'llab-quvvatlash, xorijiy bemorlar uchun qulay xizmatlar yaratish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda xalqaro marketing faoliyatini kuchaytirish zarurligi aniqlandi.



Natijalar shuni ko'rsatadiki, tibbiy turizm nafaqat sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishiga, balki mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha daromad keltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda tibbiy turizm va tibbiy xizmatlar tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanayotganligi aniqlandi. Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, zamonaviy tibbiy texnologiyalarning joriy etilishi va xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatining kengayishi tibbiy turizm rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tibbiy xizmatlar sifatining oshishi xorijiy bemorlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirib, mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha daromad keltirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tahlillar natijasida tibbiy turizm sohasida ayrim muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Jumladan, xalqaro standartlarga mos tibbiy muassasalar sonining yetarli emasligi, xorijiy bemorlar uchun axborot va marketing xizmatlarining rivojlanmaganligi hamda ayrim hududlarda tibbiy infratuzilmaning talab darajasida emasligi sohaning yanada rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Tibbiy turizm xizmatlarini xalqaro bozorda keng targ'ib qilish va marketing faoliyatini kuchaytirish.
2. Tibbiyot muassasalarining xalqaro akkreditatsiyadan o'tishini qo'llab-quvvatlash.
3. Xorijiy bemorlarga xizmat ko'rsatishda raqamli texnologiyalar va elektron platformalardan keng foydalanish.
4. Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish hamda chet tillarini o'rgatish bo'yicha maxsus dasturlarni kengaytirish.
5. Hududlarda zamonaviy diagnostika va davolash markazlarini tashkil etish orqali tibbiy infratuzilmani rivojlantirish.
6. Tibbiy turizm va turizm xizmatlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, davolanish bilan bir qatorda madaniy va tarixiy turizm imkoniyatlarini ham taklif etish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirish sog'liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirish, aholi va xorijiy fuqarolarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash hamda mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Александрова А. Ю. Международный туризм. – Москва: КНОРУС, 2018.
2. Биржаков М. Б. Введение в туризм. – Санкт-Петербург: Герда, 2014.
3. Кабушкин Н. И. Менеджмент туризма. – Минск: Новое знание, 2019.
4. Квартальнов В. А. Туризм: теория и практика. – Москва: Финансы и статистика, 2017.
5. Сенин В. С. Организация международного туризма. – Москва: Финансы и статистика, 2016.
6. Holloway J. C. The Business of Tourism. – London: Pearson Education, 2019.
7. Cook R. A., Yale L. J., Marqua J. J. Tourism: The Business of Hospitality and Travel. – New Jersey: Pearson, 2018.
8. World Health Organization. Global Report on Health Tourism. – Geneva, 2022.
9. World Tourism Organization. International Tourism Highlights. – Madrid, 2023.
10. Connell J. Medical Tourism. – Wallingford: CAB International, 2017.
11. Bookman M. Z., Bookman K. R. Medical Tourism in Developing Countries. – New York: Palgrave Macmillan, 2016.
12. Smith M., Puczko L. Health and Wellness Tourism. – London: Routledge, 2020.
13. Laws E. Health Tourism: Opportunities and Challenges for the Future. – London: Routledge, 2018.
14. O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
15. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari va statistik to'plamlari. – Toshkent, 2023.
16. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.
17. Internet manbalari:
 - Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti materiallari;
 - Jahon turizm tashkiloti hisobotlari;
 - ilmiy maqolalar va elektron kutubxona ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>